O'zbekiston Respublikasi Farg'ona viloyati Mehr - muruvvat Xayriya Jamoat Fondi vasiylik kengashining 2026 – yil 16 – iyuldagi 3 - sonli ta'sischilar yig'ilishining

BAYONNOMASI

« 16 » iyul 2026 - yil **Qo'qon shahar**

Qatnashganlar: X.Karimova, X.Madaminova, D.Nosirova, Q.Yuldasheva, Sh.Turonov, R.Xusanov, J.Zaitov, Y.Abduraimov, F. Muzaffarova, M. Axmedova, R.Saliyev, R.Xusanov, M.Saidakbarova, N.Xusanova.

Yig'ilishning mazmuni:

1 . "Mehr - muruvvat" Xayriya Jamoat Fondining ta'sischilar tarkibini o'zgartirish haqida.

Eshitildi:

Mehr - muruvvat XJF vasiylik kengashi raisi R.Soliyev so'zga chiqib yig'ilishni ochiq deb e'lon qildi va yig'ilganlarni kun tartibidagi masala bilan tanishtirdi va masala yuzasidan XJF ta'sischilari X.Karimova, X.Madaminova, D.Nosirova, Q.Yuldashevalarga so'z berdi:

X.Karimova X.Raupova olamdan ko'z yumdilar. Shu sababli X.Raupovani fond ta'sischilar qatoridan chiqarish kerakligini, qolaversa meni, X.Madaminova, D.Nosirova, Q.Yuldashevalarni esa keksa bo'lib qolganliglari, ishlari ko'payib ketganligi va boshqa sabablar bilan fond ta'sischilari qatoridan chiqishlarini bildirdi.

Mehr – muruvvat XJF boshqaruv raisi R.Husanov so'zga chiqib, o'z so'zida: Xamidaxon Raupovani joylari jannatdan bo'lsin! Sizlarning barchangiz fond ishlarida ancha yillardan beri faol qatnashib kelmoqdasizlar. Sizlar bilan hayrlashish oson emas. Barchangizga kelgusi ishlaringizga rivoj va oilaviy hayotda baxt tilayman.

Masala yuzasidan Mehr - muruvvat XJF vasiylik kengashi raisi R.Soliyev: Endi ta'sischilarning ro'yxatini ko'rib chiqib, o'zgartirishimiz kerak. Men ta'sischilar ro'yxatiga Rahmonjon Xusanov, M.Axmedova, F.Muzaffarova, Y.Abduraimov va Sh.Turonovlarning nomzodlarini taklif qilaman.

Masala yuzasidan Mehr - muruvvat XJF vasiylik kengashi azosi Sh.Turonov: Masala yuzasidan men ham ta'sischilar ro'yxatiga N.Xusanova, M.Saidakbarova, J.Zaitov, R.Soliyev va R.Xusanovlarning nomzodlarini taklif etaman.

Yig‘ilish qatnashchilari bir ovozdan takliflarni qo‘llab – quvvatladilar va

QAROR QABUL QILINDI:

1. X.Raupova olamdan ko‘z yumganligi sababli, X.Karimova, X.Madaminova, D.Nosirova, Q.Yuldashevalar esa keksayib qolganliklari, ishlari ko‘payib ketganligi va boshqa sabablar tufayli Mehr – muruvvat XJF ta’sischilari ro‘yxatidan chiqarilsin.
2. Farg’ona viloyati Mehr - muruvvat XJF ta’sischilari etib R.Soliyev, M.Axmedova, N.Xusanova, F.Muzaffarova, Y.Abduraimov, Sh.Turonov, R.Xusanov, M.Saidakbarova, J.Zaitov va R.Xusanov tasdiqlansin.

Yig‘ilish raisi: **R.Soliyev.**

Kotib: **Y.Abduraimov.**